

*Gulnoza Muxiddinova**gulnozamuxiddinova9@gmail.com**Toshkent davlat yuridik universiteti**Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan mulkiy nizolar turlari, ularning qonunchilikdagi tartibga solinishi va sud amaliyotidagi yechim uslublari yoritilgan. Ayniqsa, nikoh davomida orttirilgan multk, ajrimdan keyingi bo'lishish, meros nizolari kabi holatlar huquqiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, mediatsiya, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ijro jarayonlaridagi muammolar ham ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan mavjud muammolarga yechim sifatida huquqiy ongi oshirish va profilaktik yondashuvlar taklif etiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются виды имущественных споров между членами семьи, правовое регулирование таких конфликтов и практика их разрешения в судебной системе. Особое внимание уделено вопросам раздела совместно нажитого имущества супругов наследственным спорам и с медиации. Также обсуждаются сложности исполнительного производства. Автор предлагает повысить уровень правовой грамотности и расширить применение досудебных механизмов.

Annotation: This article examines the types of property disputes among family members, their legal regulation, and resolution through court practice. Particular focus is placed on jointly acquired property during marriage, post-divorce division, inheritance disputes, and mediation. Challenges in enforcement procedures are also discussed. The author proposes enhancing legal awareness and encouraging preventive legal measures.

Kalit so'zlar: Oila huquqi, Mulkiy nizolar, Meros nizosi, Nikoh davrida orttirilgan multk, Fuqarolik kodeksi, Sud amaliyoti, Mediatsiya, Huquqiy ong

Oilaviy munosabatlar nafaqat hissiy, balki mol-mulk bilan bog'liq huquqiy masalalarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, oxirgi yillarda oila a'zolari o'rtasida yuzaga kelayotgan mulkiy nizolar sonining ortishi ushbu yo'nalishda chuqur tahlil va huquqiy yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. O'zbekistonda bunday nizolar asosan nikoh davomida orttirilgan umumiy multkni bo'lish, ajrashgan taraflar o'rtasida mol-mulk taqsimoti, meros masalalari va uy-joydan foydalanish kabi holatlarda ko'p uchraydi. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi bayon etilgan. Shu o'rinda davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa

shart-sharoitlar yaratadi. Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, undagi barqarorlik davlat va xalq farovonligining asosi hisoblanadi. Biroq, har doim ham oilaviy hayot uzoq va baxtli davom etmaydi. Turli sabablar tufayli er-xotinlar o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelib, ajralish holatlariga olib keladi. Ajralishlar jamiyatda muhim ijtimoiy muammo hisoblanadi, chunki ular nafaqat ruhiy, balki huquqiy va iqtisodiy oqibatlarga ham olib keladi.

Statistika ma’lumotlariga qaraganda, O‘zbekistonda 2023-yilda 49,200 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan. Bu ko’rsatkich 2022-yilga nisbatan biroz ko’proqdir. Hududiy statistika qaraydigan bo‘lsak, nikohdan ajralishlar soni bo'yicha Toshkent shahri yetakchilik qilgan. Xo‘s sh buning sababi nimada? NClawyersforyou saytidagi maqolada keltirilishicha, odatda katta shaharlardagi ajrimlar soni mamlakat chekka hududlarida bo‘ladigan nikohdan ajralishlarga nisbatan yuqoriq bo‘ladi. Bunga shahar muhitida individualizmning ko‘proq rag‘batlantirilishi va ish va hayot o‘rtasidagi muvozanatning kamligi ko‘rsatilib o‘tilgan.

Undan keyin o‘rinlarda Farg’ona va Andijon viloyatlari keladi. Eng kam ajrim esa Navoiy viloyatida kuzatilgan.

Umumiyoq ko’rsatkich hududlar kesimida:

- Toshkent shahri – 6,169 ta.
- Farg’ona viloyati – 5,773 ta.
- Andijon viloyati – 5,480 ta.
- Navoiy viloyati – eng kam.

Farzandli va farzandsiz ajralishlar:

- Farzandsiz ajralishlar – 24,576 ta (jami ko’rsatkichning 50%).
- Bir nafar farzand bilan ajralishlar – 13,610 ta (27.7%).
- Ikki va undan ortiq farzand bilan ajralishlar – 11,012 ta (22.3%).

Yosh bo'yicha:

Ajrashgan erkaklar o‘rtacha 37.2 yosh, ayollar esa 32.8 yoshda bo'lgan. 35 yoshgacha bo'lgan ayollar ajralishlarda eng katta ulushni (62.5%) tashkil etgan.

Ma’lumotda keltirilishicha, 2023 yilda O‘zbekistonda qayd etilgan nikohlar soni 283,8 mingni tashkil qilgan. Bu raqam 2022 yilda 296,7 ming bo‘lgan.

Respublikada keyingi yillarda ajralishlar soni sezilarli ko‘paygan. Misol uchun, 2021 yilda 39,3 ming nikohdan ajralish qayd etilgan bo‘lsa, bu raqam 2022 yilda 48,7 mingni, 2023 yilda esa yuqorida ta’kidlanganidek 49,2 mingtani tashkil qilgan.

Zamonaviy hayotning bosimi va stress darajasining oshishi, ish va shaxsiy hayot muvozanatining buzilishi oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir qiladi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va axborot vositalari ta’siri ostida odamlarning kutganlari va talablari ham oshib, ular o‘zaro kelishmovchiliklarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shuningdek, iqtisodiy qiyinchiliklar, mol-mulk masalalaridagi nizolar va oilaviy zo‘ravonlik kabi omillar ham ajralishlarga sabab bo‘ladi. Shu bois, oilalarda

mustahkamlikni saqlash va ajralishlarni kamaytirish uchun huquqiy ta'lismi, oilaviy psixologik yordam va mediatsiya kabi vositalarni kengroq qo'llash zarur.

Shu o'rinda savol tug'iladi: o'zi ajrim jarayoni O'zbekiston qonunchiligidagi qanday tartibga solingan?

Mamlakat qonunchiligidagi Oila kodeksi va Fuqarolik kodeksi ushbu masalalarni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, nikohdan ajralishning ikki xil yo'li mavjud — fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari yoki sud orqali. Ularning har biriga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Birinchisi, Oila kodeksining 42-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan bolalari bo'lmasligi er-xotin nikohdan ajratishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi. Ya'ni, nikohlanuvchilar o'rtasida hech qanday mulkiy munosabatlar bo'lmasa yoki o'rtada farzand bo'lmasa ular FHDYO orqali ajralishadi. Bu yerda shuningdek er-xotin o'rtasida mulkiy nizolar mavjud bo'lmasligi ham talab etiladi.

Ikkinci yo'li esa, Oila kodeksining 40-moddasiga ko'ra sud tomonidan ajratishdir. Unga ko'ra, nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida da'vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Bunday tartibdagi ajrim tomonlar o'rtasida mulkiy masalar va voyaga yetmagan farzandlar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

Keling, oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy nizolar va sud amaliyotini ko'rib chiqsak. Nikoh davomida er-xotin tomonidan orttirilgan mol-mulk Oila kodeksining 23-moddasiga ko'ra ularning umumiy mulki sifatida qaraladi. Sud amaliyotida esa, bu mulk taraflar o'rtasida odatda teng taqsimlanadi, biroq real sharoitlar, taraflarning ishtiropi darajasi va farzandlar holati inobatga olinishi mumkin. Shu joyda: "Nikohlanuvchilarning umumiy mulkiga o'zi nimalar kiradi?" degan savol paydo bo'lishi mumkin. Ushbu savolga javobni Oila kodeksining 23-moddasi orqali olishimiz mumkin. Unga ko'ra, Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan, tadbirdorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek maxsus maqsadga mo'ljallanmagan boshqa pul to'lovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo'lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to'langan summalar va boshqalar) kiradi.

Er va xotinning umumiylar daromadlari hisobiga olingan ko‘char va ko‘chmas ashyolar, qimmatli qog‘ozlari, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulkulari, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag‘lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo‘lishidan qat‘i nazar, ular ham er va xotinning umumiylar hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, er va xotinning nikoh davomida yoki nikohdan oldin ularning umumiylar hisobiga olingan barcha mol-mulkulari, agar qonunda yoki nikoh shartnomasida boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning umumiylar hisoblanadi. Bu mol-mulk ish haqi, pensiyalar, ko‘chmas va ko‘chma mulk, qimmatli qog‘ozlar va boshqa daromadlarni o‘z ichiga oladi.

Biroq har qanday daromad va mulk ham er-xotinning umumiylar hisoblanmaydi. Taraflar har birining alohida mulki ham bo‘ladi va bu qonunchiligidan bilan tartiba solingan. Unga ko‘ra, er va xotinning nikohga qadar o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulk ular dan har birining o‘z mulki hisoblanadi.

Nikoh davomida er-xotinning umumiylar hisobiga olingan bo‘lsalar, ulardan har birining mol-mulk yoxud er va xotindan birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag‘lar (kapital ta’mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qo‘shilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulk ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin.

Qimmatbaho buyumlar va zebu-ziynatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shu kabilalar), garchi nikoh davomida er va xotinning umumiylar hisobiga olingan bo‘lsalar, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi.

Xo‘sh, umumiylar hisobiga olingan bo‘linadi. Oila kodeksining 27-moddasida, umumiylar hisobiga olingan bo‘linadi. Er va xotinning umumiylar hisobiga olingan bo‘linadi. Bo‘linmaydi va ular faqatgina bolalarga tegishli bo‘ladi. Ajralishdan keyin mulkni bo‘lish bo‘yicha da’vo qilish uchun uch yil muddat beriladi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bu kabi mojarolarning oldini olishda mediatsiya muhim rol o‘ynashi mumkin. 2018-yilda qabul qilingan "Mediatsiya to‘g‘risida"gi Qonun oilaviy nizolarni sudgacha hal etish imkoniyatini yaratadi.

Kodeksning 28-moddasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda hamda ularning shu mol-mulkdagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o'rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, er va xotinning ulushlari teng deb hisoblanadi.

Sud voyaga yetmagan bolalar manfaatlaridan va (yoki) er va xotindan birining e'tiborga loyiq manfaatini hisobga olib, jumladan, agar er yoki xotin uzsiz sabablarga ko'ra daromad olmagan bo'lsa yoxud er va xotinning umumiy mol-mulkini oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflagan bo'lsa, er va xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushlari tengligidan chekinishga haqlidir.

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda er va xotinning umumiy qarzlari ularga belgilangan ulushlarga mutanosib ravishda har ikkalasi o'rtasida taqsimlanadi.

Agar er va xotindan biri umumiy mol-mulkni er yoki xotinning erkiga zid ravishda va oila manfaatiga mos bo'lмаган holda o'z xohishiga ko'ra sarflagan yoki boshqa shaxsga o'tkazgan bo'lsa, uni bo'lishda bu mol-mulk yoki uning qiymati hisobga olinadi.

Xalqaro amaliyotga nazar tashlansa, rivojlangan davlatlarda oilaviy mulkiy nizolarni tartibga solishda oldindan tuzilgan "pre-nuptial agreement" (nikoh shartnomasi) keng qo'llaniladi. Masalan, Germaniyada nikohdan avval mulkiy kelishuv tuzish oddiy hol hisoblanadi va sudlar uni asosiy hujjat sifatida e'tiborga oladi. Shuningdek, AQShda mediatsiya orqali hal etilgan oilaviy nizolar sudlarda ko'rib chiqiladigan ishlardan ko'ra samaraliroq va tezroq hal qilinadi. Bu esa sud tizimidagi yukni kamaytiradi va taraflar orasidagi psixologik bosimni yengillashtiradi.

Bundan tashqari, Skandinaviya davlatlarida davlat tomonidan bepul yuridik maslahatlar va oilaviy psixologik xizmatlar taklif etiladi. Bu esa fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ajralish oiladagi eng qiyin holatlardan biri va u odamlarning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ajralish nafaqat ruhiy holatga, balki mol-mulk masalalariga ham katta muammolar olib keladi. Shuning uchun oiladagi mulkiy nizolarni oldini olish va ularni hal qilish uchun huquqiy bilimlarni oshirish, mediatsiya kabi tinch yo'l bilan kelishuv usullarini qo'llash juda muhim. Shu tarzda oiladagi nizolar kamroq bo'ladi, odamlar orasidagi munosabatlar ham yomonlashmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (01.05.2023-y., 03/23/837/0241-sон)
2. Brown, O. (2024, September 5). *The Impact of Urbanization on Divorce Rates: A Closer Look at Metropolitan vs. Rural Areas*. NC Lawyers for You. <https://nclawyersforyou.com/the-impact-of-urbanization-on-divorce-rates/>
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
4. O'zbekiston Respublikasi Oilalik kodeksi
5. <https://kun.uz/>
6. <https://daryo.uz/>